

ISSN 2181-5887



# O'ZBEKISTON TERAPIYA AXBOROTNOMASI



## ТЕРАПЕВТИЧЕСКИЙ ВЕСТНИК УЗБЕКИСТАНА

№ 2, 2023

## КАРДИОЛОГИЯ

KORONAR ARTERIYALARNING NOOBSTRUKTIV ZARARLANISH BILAN O'TKIR KORONAR SINDROMNING ST ELEVATSIYALI KO'RINISHI Abdukamilov A.M., Srojidinova N.Z. ....	13
ALOHIDA VA QO'SHILIB KELGAN XAVF OMILLARNING YURAKNING ISHEMIK KASALLIGI RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI Ismailov K.Y., Ro'zimov X.I. ....	13
REVMATOID ARTRITDA YURAK ISHEMIK KASALLIGINI KECHISH XUSUSIYATLARI Mamasiddiqova S.B., Xidoyatova M.R., Mirxamidov M.V., Nurmuhammedova N.S., O'roqova Z.U. ....	14
YURAK ISHEMIK KASALLIGI: STENOKARDIYANING O'T-TOSH KASALLIGI KECHISHIGA TA'SIRI Qodirova Sh.A. ....	15
YURAK ISHEMIK KASALLIGI, SURUNKALI YURAK YETISHMOVCHILIGI VA 2 TIP QANDLI DIABET KASALLIGI BILAN OG'RIGAN BEMORLAR GURUHIDA SITAGLIPTIN/METFORMIN PREPARATINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH Trigulova R.X., Parpibayeva D.A., Musayeva M.A., Turbanova U.V., Sultonova D.A. ....	15
KAROTID ATEROSKLEROZI RIVOJLANGAN, SIMPTOMLI VA SIMPTOMSIZ KECHUVCHI BEMORLARNING TURLI BIOSUBSTRATLARIDA SINK HAMDA QON ZARDOBIDA MMP-9 VA TIMP-1 MIQDORI Usmanova Z.A., Rozixodjaeva G.A. ....	16
НЕКОТОРЫЕ ПОКАЗАТЕЛИ ЛИПИДОВ И ФУНКЦИОНАЛЬНЫХ ПАРАМЕТРОВ СЕРДЦА ПАЦИЕНТОВ, НУЖДАЮЩИХСЯ В РЕВАСКУЛЯРИЗАЦИИ МИОКАРДА Абдуллаев А.Х., Орзиев Д.З., Аляви Б.А., Узоков Ж.К., Курмаева Д.Н. ....	17
ОБ ЭФФЕКТИВНОСТИ НЕФАРМАКОЛОГИЧЕСКИХ МЕТОДОВ В КОМПЛЕКСНОМ ЛЕЧЕНИИ И РЕАБИЛИТАЦИИ БОЛЬНЫХ КОРОНАРНОЙ БОЛЕЗНЬЮ СЕРДЦА Абдуллаев А.Х., Аляви Б.А., Узоков Ж.К., Пулатов Н.Н., Курмаева Д.Н. ....	18
ОСОБЕННОСТИ ВЛИЯНИЯ ФАКТОРОВ КАРДИОМЕТАБОЛИЧЕСКОГО РИСКА У ЛИЦ МОЛОДОГО ВОЗРАСТА С АРТЕРИАЛЬНОЙ ГИПЕРТЕНЗИЕЙ Атаходжаева Г.А., Миноварова Ч.А. ....	19
ФУНКЦИОНАЛЬНОЕ СОСТОЯНИЕ ПОЧЕК У БОЛЬНЫХ С ХРОНИЧЕСКОЙ СЕРДЕЧНОЙ НЕДОСТАТОЧНОСТЬЮ С ПРОМЕЖУТОЧНОЙ ФРАКЦИИ ВЫБРОСА Атаходжаева Г.А., Коракулова З.Т. ....	19
ОСОБЕННОСТИ ТЕЧЕНИЯ ХРОНИЧЕСКОЙ БОЛЕЗНИ ПОЧЕК У БОЛЬНЫХ С ХРОНИЧЕСКОЙ СЕРДЕЧНОЙ НЕДОСТАТОЧНОСТЬЮ С ПРОМЕЖУТОЧНОЙ ФРАКЦИИ ВЫБРОСА Атаходжаева Г.А., Коракулова З.Т. ....	20
РЕАБИЛИТАЦИЯ ПОСЛЕ АОРТО-КОРОНАРНОГО ШУНТИРОВАНИЯ. ОБЗОР ЛИТЕРАТУРНЫХ ДАННЫХ (эпидемиология по казахстану и мировой популяции) В ПРАКТИКЕ Байдуйсен С.Б., Сулейменов А.К. ....	21
ИССЛЕДОВАНИЕ ПОЧЕЧНОЙ ФУНКЦИИ НА УРОВНЕ ПРОКСИМАЛЬНЫХ КАНАЛЬЦЕВ У БОЛЬНЫХ С ХРОНИЧЕСКОЙ СЕРДЕЧНОЙ НЕДОСТАТОЧНОСТЬЮ Гадаев А.Г., Пирматова Н.В., Тургунова М.У. ....	21
ПРОФИЛАКТИКА ТРОМБОЭМБОЛИЧЕСКИХ ОСЛОЖНЕНИЙ В АМБУЛАТОРНЫХ УСЛОВИЯХ У ПАЦИЕНТОВ С ПОСТОЯННОЙ ФОРМОЙ ФИБРИЛЛЯЦИЕЙ ПРЕДСЕРДИЙ Игамбердиева Р.Ш. ....	22
СТРУКТУРНО-ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ СЕРДЦА У ПАЦИЕНТОВ ПОЖИЛОГО И СТАРЧЕСКОГО ВОЗРАСТА С ХРОНИЧЕСКОЙ БОЛЕЗНЬЮ ПОЧЕК И ФИБРИЛЛЯЦИЕЙ ПРЕДСЕРДИЙ Игамбердиева Р.Ш. ....	23
ИЗУЧЕНИЕ АГРЕГАТНОГО СОСТОЯНИЯ КРОВИ ПРИ ИШЕМИЧЕСКОЙ БОЛЕЗНИ СЕРДЦА В СОЧЕТАНИИ САХАРНОГО ДИАБЕТА 2-ТИПА Иманкулова Д.А., Аляви А.Л. ....	23
ИЗУЧЕНИЕ КАЧЕСТВА ЖИЗНИ БОЛЬНЫХ, ПЕРЕНЕСШИХ СТЕНТИРОВАНИЕ Кадирова Г.Г. ....	24
ОЦЕНКА ВНУТРИСЕРДЕЧНОЙ ГЕМОДИНАМИКИ БОЛЬНЫХ, ПЕРЕНЕСШИХ СТЕНТИРОВАНИЯ КОРОНАРНЫХ АРТЕРИЯХ Кадирова Г.Г. ....	25
ОСОБЕННОСТИ ТЕЧЕНИЯ ХРОНИЧЕСКОЙ СЕРДЕЧНОЙ НЕДОСТАТОЧНОСТИ У ПОЖИЛЫХ Кадырова Ш.А., Ходжанова Ш.И. ....	25

to'plangan materiallarni tahlil qilishda ijtimoiy-gigienik va sanitariya-statistik hamda populyatsion tekshirishlar uchun Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan tavsiya etilgan tadqiqot usullaridan foydalanildi.

**Natijalar.** Tadqiqot natijalari xavf omillarning borligi va xavf omillarning bir nechtasining qo'shilib kelishi YIKning tarqalishida muhim ahamiyatga egaligini ko'rsatdi. Aytish joizki, xavf omillar yo'qligida YIK uchrashi 4,69%ni tashkil qildi. Giperxolesterinemiya va glyukozaga bo'lgan tolerantlikning buzilishi birgalikda qo'shilib kelganida YIKning tarqalishi 7% gacha oshdi. Giperxolesterinemiya va arterial gipertenziya mavjudligida YIKning uchrashi 12%ni tashkil etdi.

Giperxolesterinemiya (GX) va ortiqcha tana vazni bo'lganida YIKning uchrashi 16,67%ga teng bo'ldi. YIKning uchrashi ikkita xavf omili qo'shilib kelganda quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi: Ortiqcha tana vazni va glyukozaga bo'lgan tolerantlikning buzilishi bo'lgan holatlarda –19,64%; Arterial gipertenziya (AG) va ortiqcha tana vazni bo'lganida (OTV) – 20%; Arterial gipertenziya va glyukozaga bo'lgan tolerantlikning buzilishi (GTB) bo'lganida – 27,3%.

Uchta xavf omili AG, GTB va OTV qo'shilib kelganida YIK shakllanish xavfi sezilarli ravishda oshdi (44,4%). Shuni alohida ta'kidlash kerakki, to'rtta xavf omili AG, GTB, GX va OTV (66,7%) qo'shilib kelganida YIK (66,7%) shakllanishi ko'p kuzatildi. Reprezentativ tanlash orqali erkaklar orasida o'tkazilgan tadqiqot natijasi shuni ko'rsatdiki, har xil xavf omillar YIKning shakllanishida o'ziga xos ahamiyatga ega.

**Xulosalar.** Turli mintaqalarda o'tkazilgan ko'plab tadqiqot ma'lumotlariga ko'ra, yurak ishemik kasalligining shakllanish xavfi birinchi navbatda arterial gipertenziya, giperxolesterinemiya va ortiqcha tana vazni mavjudligi bilan bog'liq.

O'rganilgan populyatsiyada YIK shakllanishida glyukozaga bo'lgan tolerantlik buzilishining yuqori ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Olingan ma'lumotlar yurak ishemik kasalligining birlamchi va ikkilamchi profilaktikasida giperqlikemiya, boshqa xavf omillar bilan birga erta aniqlash va bartaraf qilish zarurligini ko'rsatadi.

Alohida xavf omillar va ularning qo'shilib kelgan holatlarini aniqlash va bartaraf qilish yurak ishemik kasalligining asosiy profilaktikasi hisoblanadi.

## REVMATOID ARTRITDA YURAK ISHEMIK KASALLIGINI KECHISH XUSUSIYATLARI

MAMASIDDIQOVA S.B., XIDOYATOVA M.R., MIRXAMIDOV M.V., NURMUHAMMEDOVA N.S., O'ROQOVA Z.U.

*Toshkent tibbiyot akademiyasi, Toshkent, O'zbekiston*

**Tadqiqod maqsadi.** Revmatoid artrit (RA) bilan og'rikan bemorlarda yurak ishemik kasalligining kechishi, xususiyatlari va uchrash tezligini o'rganish.

**Material va usullar.** Tadqiqot Toshkent tibbiyot akademiyasi ko'p tarmoqli klinikasi revmatologiyava artrologiya bo'limida o'tkazildi. Tadqiqotda RA tashxisi qo'yilgan 58 nafar bemor ishtirok etdi (ARA, 1987). 27 erkak va 31 ayol tekshirildi. Bemorlarning o'rtacha yoshi  $55,4 \pm 11,6$  yosh, RA davomiyligi 14,7 (2; 20) yil. Tadqiqotga RA bilan og'rikan bemorlar yurak ishemik kasalligi va xavf omillarini uchrashi o'rganilgan.

**Natijalar.** RAda yurak ishemik kasalligining uchrashi 46,5% ga ( $n=27$ ), shu jumladan stabil zo'riqish stenokardiyasi- 53,4% ( $n=31$ ), og'riqsiz ishemiya va aritmiya – 25,8% ( $n=15$ ) va 22,4% ( $n=13$ ), mos ravishda. Yurak sohasidagi og'riqlardan shikoyat qilganlarda vertebrogen kardialgiyaning yuqori ulushi (48,3%;  $n=28$ ) qayd etilgan. Arterial gipertenziya (NX – 12,1), chekish (NX – 10,2),

erta menopauza (NX – 3,6), glomerulyar filtratsiya tezligining pasayishi (NX – 3,5), irsiy yurak-qon tomir kasalliklari (NX – 3,1) ortiqcha vazn (NX – 2,5), yurak urish tezligi – 70 dan ortiq urish / min (NX – 2,3), aterogen dislipidemiya (NX – 2,3), giperqlikemiya (NX – 2,1) va yosh (NX – 1,7) kabi an'anaviy xavf omillari aniqlandi. Ular bilan bir qatorda surunkali yallig'lanish oqibatlarini bilan bog'liq bo'lgan yurakning ishemik kasalligining predikatorlari aniqlandi – glyukokortikoidlarni qabul qilish (NX – 5,0), RA ning tez-tez uchraydigan asoratlari sifatida birga keladigan anemiya (NX – 4,7), DAS 28 (NX) bo'yicha yuqori RA faolligi. – 3,7), og'riqning VASh >50 mm (NX – 2,6) va davomiyligi >10 yil (NX – 2,2).

**Xulosa.** RA bilan kasallangan bemorlarda Yurak ishemik kasalligi asosan ritm buzilishi va og'riqsiz ishemiya bilan birga kechadi. Yurak ishemik kasalligi uchun odatiy xavf omillari bilan bir qatorda, yallig'lanish faolligi darajasi katta ahamiyatga ega.